



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI
ADMINISTRATSIYASI HUZURIDAGI
**TA'LIM SIFATINI TA'MINLASH
MILLIY AGENTLIGI**

TA'LIM DASTURINI
MAXSUS DAVLAT AKKREDITATSIYASIDAN O'TKAZISH BO'YICHA

YAKUNIY HISOBOT



SAMARQAND DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI
Davlat oliy ta'lim tashkiloti

60610100 – Axborot tizimlari va texnologiyalari
Bakalavriat



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI
ADMINISTRATSIYASI HUZURIDAGI
TA'LIM SIFATINI TA'MINLASH MILLIY AGENTLIGI**

60610100 – Axborot tizimlari va texnologiyalari

**TA'LIM DASTURINI MAXSUS DAVLAT AKKREDITATSIYASIDAN
O'TKAZISH BO'YICHA YAKUNIY HISOBOT**

SAMARQAND DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

(Ekspert komissiyasi xulosasi asosida)

EKSPERT KOMISSIYASI TARKIBI



Rais: SHUKUROV KAMOLIDDIN ELBOBO O'G'LI

**Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot
texnologiyalari universiteti**

fan doktori (DSc)



A'zo: NITIN SUKHADEVRAO GOJE

Webster University in Tashkent

falsafa doktori (PhD), professor

1. UMUMIY MA'LUMOTLAR

Ariza raqami	MAO260096
Xulosa raqami	718
Xulosa sanasi	14.06.2026
Ta'lim tashkilotining to'liq nomi	"SAMARQAND DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI" DAVLAT MUASSASASI
Tashkilot manzili, litsenziya / identifikatsiya ma'lumotlari	Samarqand viloyati, Samarqand shahri, Spitamenshox ko'chasi, 166-uy. Guvohnoma: MAS № 0000167, 22.06.2026.
Baholangan ta'lim dasturi nomi	Axborot tizimlari va texnologiyalari
Yo'nalish / mutaxassislik kodi	60610100
Akkreditatsiya usuli	masofaviy / joyiga chiqib

2. HUQUQIY ASOSLAR

Xulosa tayyorlanishiga asos bo'lgan normativ-huquqiy hujjat:

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "O'rta maxsus, kasbiy, oliy va oliy ta'limdan keyingi ta'lim, shuningdek, kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tashkilotlarini kompleks hamda maxsus davlat akkreditatsiyasidan o'tkazish tizimini joriy etish to'g'risida" 2025-yil 6-avgustdagi 498-son qarori 1-ilovasi bilan tasdiqlangan "O'rta maxsus, kasbiy, oliy va oliy ta'limdan keyingi ta'lim, shuningdek, kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tashkilotlarini kompleks hamda maxsus davlat akkreditatsiyasidan o'tkazish tartibi to'g'risida"gi Nizom.

Maxsus davlat akkreditatsiyasi:

O'rta maxsus, kasbiy, oliy ta'limni va oliy ta'limdan keyingi ta'limni, shuningdek, kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishni amalga oshiruvchi davlat va nodavlat ta'lim tashkilotlarida ta'lim dasturlari bo'yicha o'quv jarayoni boshlanishidan oldin amalga oshiriladigan jarayon.

3. TA'LIM DASTURINING UMUMIY TAVSIFI

1. Ta'lim tashkilotining litsenziya/guvohnomasi: <i>License/Certificate of Educational Institution:</i>	MAS № 0000167, 22.06.2026
2. Ta'lim tashkilotining turi: <i>Type of Educational Institution:</i>	Davlat oliy ta'lim tashkiloti
3. Ta'lim dasturi kodi va nomi: <i>Code and Name of Study Programme:</i>	60610100 – Axborot tizimlari va texnologiyalari
4. Ta'lim dasturining ingliz tilida nomlanishi: <i>Name of Study Programme in English:</i>	60610100 – Information Systems and Technologies
5. Ta'lim dasturining rus tilida nomlanishi: <i>Name of Study Programme in Russian:</i>	60610100 – Информационные системы и технологии
6. Hamkorlikda amalga oshirilishi: <i>Offered in Cooperation with:</i>	—
7. Ta'lim tili: <i>Medium of Instruction:</i>	o'zbek
8. Ta'lim shakli: <i>Mode of Study:</i>	kunduzgi
9. Ta'lim dasturi hajmi: <i>Study Programme Credits:</i>	240 kredit
10. Ta'lim dasturi davomiyligi: <i>Duration of Study Programme:</i>	4 yil
11. Milliy malaka ramkasidagi darajasi: <i>Level in National Qualifications Framework:</i>	6-daraja
12. Kvalifikatsiya(lar) nomi: <i>Qualification Title:</i>	Axborot texnologiyalari mutaxassisi, informatika fani o'qituvchisi
13. Qo'shimcha beriladigan kvalifikatsiyalar: <i>Additional Qualifications Awarded:</i>	—
14. Ta'lim dasturi yakunida beriladigan hujjat turi: <i>Type of Document Issued Upon Completion:</i>	Davlat namunasidagi diplom
15. Ta'lim oluvchilarning me'yoriy miqdori (to'liq davr): <i>Maximum Number of Students (full period):</i>	100 nafar
16. Ta'lim dasturini o'qitish manzili: <i>Address Where the Study Programme is Delivered:</i>	Samarqand viloyati, Samarqand shahri, Spitamenshox ko'chasi, 166-uy

4. BAHOLASH YO'NALISHLARI VA MEZONLAR BO'YICHA NATIJALAR

Har bir yo'nalish bo'yicha baho (muvofoq / muvofoq emas) va har bir mezon bo'yicha baho (muvofoq / qisman muvofoq / muvofoq emas) deb baholanadi.

№	Baholash yo'nalish (bob) va mezonlari	Muvofiqligi
1.	Tashkiliy-boshqaruv va sifatni ta'minlash	Muvofiq
1.1.	<i>ta'lim dasturini amalga oshirish bo'yicha tarkibiy tuzilma va uning samarali ishlash mexanizmlarining mavjudligi;*</i>	Muvofiq
1.2.	<i>ta'lim dasturini rivojlantirish va moliyaviy barqarorligini ta'minlash bo'yicha 5 yillik istiqbolli rejaning mavjudligi;</i>	Muvofiq
1.3.	<i>ta'lim dasturi doirasida sifatni ichki ta'minlash mexanizmining mavjudligi hamda bu jarayonlarda manfaatdor tomonlarning ishtiroki ta'minlangani;</i>	Muvofiq
1.4.	<i>mehnat bozori va ta'lim ehtiyojlari hamda ilmiy-tadqiqotning so'nggi tendensiyalarini aniqlash bo'yicha monitoring tizimining mavjudligi;</i>	Muvofiq
2.	Ta'lim dasturlari	Muvofiq
2.1.	<i>manfaatdor tomonlar ishtirokida ta'lim dasturining belgilangan tartibda ishlab chiqilgani. Bunda ta'lim dasturining maqsadi, natijalarining belgilangani, mehnat bozori, davlat ta'lim standarti va milliy malakalar ramkasi talablariga muvofiqligi;*</i>	Muvofiq
2.2.	<i>ta'lim dasturining milliy ta'lim tizimidagi ustuvor yo'nalishlar va xalqaro andozalar asosida ishlab chiqilgani;</i>	Muvofiq
2.3.	<i>ta'lim dasturining davomiyligi, fanlarning uzviyligi va uzluksizligi ta'minlangani;</i>	Muvofiq
3.	O'quv jarayonini tashkil etish va o'quv natijalarini baholash	Muvofiq
3.1.	<i>ishchi o'quv reja va dasturlarining belgilangan talablarga muvofiq ishlab chiqilgani;*</i>	Muvofiq
3.2.	<i>o'quv jarayonining ta'lim dasturida belgilangan o'quv natijalariga erishishga yo'naltirilgani;*</i>	Muvofiq
3.3.	<i>o'quv jarayonining doimiy baholab borilishi va takomillashtirishga qaratilgani;</i>	Muvofiq
3.5.	<i>ta'lim dasturi doirasida talabalar bilimining shaffof va xolis baholanishi, baholash jarayonlarining o'quv natijalariga muvofiqligi;</i>	Muvofiq
3.6.	<i>talabalarning baholash natijalari bo'yicha fikr-mulohazalarini olish imkoniyati mavjudligi;</i>	Muvofiq
3.7.	<i>ta'lim dasturida akademik halollik qoidalarining belgilangani va unga zid holatlarning oldini olish bo'yicha samarali tizimning mavjudligi;*</i>	Muvofiq

No	Baholash yo'nalish (bob) va mezonlari	Muvofiqligi
4.	Talabalar faoliyati	Muvofiq
4.1.	<i>ta'lim dasturi bo'yicha qabul talablari aniq belgilangani, o'qishga qabul qilish shaffof tarzda yo'lga qo'yilgani;</i>	Muvofiq
4.2.	<i>qabul parametrlarining ta'lim tashkilotining resurslari va imkoniyatlariga mos kelishi;*</i>	Muvofiq
4.3.	<i>talabalarining o'qishini ko'chirish, kursdan-kursga o'tkazish (qoldirish), o'qishdan chetlashtirish va o'qishini qayta tiklash tartibining belgilangani;*</i>	Muvofiq
4.4.	<i>talabalarni qo'llab-quvvatlash va ularga maslahat berish mexanizmlarining mavjudligi;</i>	Muvofiq
5.	Inson resurslari	Muvofiq
5.1.	<i>ta'lim dasturi uchun belgilangan me'yorlarga muvofiq pedagog kadrlar, shuningdek, boshqaruv, texnik, xizmat ko'rsatuvchi va o'quv-yordamchi xodimlar mavjudligi hamda ularning sifat tarkibi, malakasi va mutaxassisligi belgilangan talablarga mosligi;*</i>	Muvofiq
5.3.	<i>yangi ta'lim dasturlari bo'yicha o'quv rejadagi fanlarga mos (tegishli) kasbiy, pedagogik va ilmiy kompetensiyalarga ega pedagog kadrlar bilan ta'minlash bo'yicha aniq rejaning mavjudligi;*</i>	Muvofiq
5.4.	<i>kadrlarning kasbiy rivojlanishi va malaka oshirishiga sharoit yaratilgani, moddiy va ma'naviy rag'batlantirish tizimining mavjudligi;</i>	Muvofiq
6.	Moddiy-texnik ta'minot	Muvofiq
6.1.	<i>ta'lim dasturini amalga oshirish uchun amaliy, laboratoriya mashg'ulotlari va kurs ishi (loyiha)ni bajarish uchun zarur asbob-uskunalar, jihozlar, inventarlar, texnikalar, xomashyo materiallari va boshqalarning mavjudligi hamda metodik qo'llanma (ko'rsatma)lar bilan ta'minlangani;*</i>	Muvofiq
6.2.	<i>fanlar kesimida o'quv va o'quv-metodik adabiyotlar, elektron ta'lim resurslari bilan belgilangan talablarga muvofiq ta'minlangani;*</i>	Muvofiq
6.3.	<i>o'quv va laboratoriya xonalari hamda ustaxona (poligon)larning talabalar sonidan kelib chiqib, ta'lim dasturlariga mos jihozlar va axborot-kommunikatsiya vositalari bilan ta'minlangani hamda xavfsizlik qoidalariga rioya qilingani;*</i>	Muvofiq
6.4.	<i>inklyuziv ta'lim olish uchun binolar va jihozlarning moslashtirilgani, maxsus o'quv materiallarining mavjudligi, axborot-kommunikatsiya vositalaridan foydalanish imkoniyati yaratilgani;</i>	Qisman muvofiq
6.5.	<i>axborot-resurs markazining (kutubxonaning) ta'lim dasturlariga mos o'quv adabiyotlari, kompyuterlar bilan ta'minlangani, o'quv zali va elektron kutubxonaning mavjudligi;*</i>	Muvofiq

No	Baholash yo'nalish (bob) va mezonlari	Muvofiqligi
6.6.	<i>raqamli ta'lim muhiti yaratilgani (LMS, wi-fi zonalari, onlayn kurslar, vebinarlar va masofaviy ta'lim imkoniyatlari);</i>	Muvofiq
6.7.	<i>ta'lim dasturi xususiyatidan kelib chiqib, maxsus xona yoki bino va inshootlarining (sport zali, stadion, musiqa xonasi va boshqalarning) mavjudligi.</i>	Muvofiq

5. BAHOLASH YO'NALISHLARI (BOB) BO'YICHA XULOSALAR

1-bob. Tashkiliy-boshqaruv va sifatni ta'minlash yo'nalishi

1-bob bo'yicha o'tkazilgan ichki va tashqi baholash natijalari hamda taqdim etilgan hujjatlar tahlili asosida mazkur bobdagi barcha indikatorlar muvofiq deb topildi. Tahlillar natijasida institutda ta'lim sifatini boshqarishning strategik asoslari, tashkiliy tuzilmalari hamda ta'lim dasturini amalga oshirish mexanizmlari shakllantirilgani aniqlandi. Ta'lim dasturini rivojlantirish va uning moliyaviy barqarorligini ta'minlashga qaratilgan istiqbolli rivojlanish rejasi ishlab chiqilgan bo'lib, uni amalga oshirish uchun zarur tashkiliy mexanizmlar belgilangan. Manfaatdor tomonlar bilan hamkorlik tizimi yo'lga qo'yilgan bo'lib, ish beruvchilar bilan hamkorlik shartnomalarining mavjudligi hamda bitiruvchilar o'rtasida muntazam so'rovnomalar o'tkazilishi mehnat bozori ehtiyojlarini o'rganish va ularni ta'lim dasturiga integratsiya qilish imkonini beradi. Axborot tizimlari va texnologiyalari yo'nalishi uchun ish beruvchilar bilan uzluksiz hamkorlik qilish, bitiruvchilarning kasbiy faoliyati yuzasidan qayta aloqa olish hamda mehnat bozori talablarini muntazam tahlil qilib borish ta'lim dasturining zamonaviyligi va dolzarbligini ta'minlovchi muhim omillardan biri hisoblanadi. Shu bilan birga, ichki sifatni ta'minlash jarayonlarini yanada tizimli hujjatlashtirish va ularning natijalarini muntazam tahlil qilish ta'lim sifatini uzluksiz takomillashtirishga xizmat qiladi. Tashkiliy-boshqaruv va sifatni ta'minlash tizimi ta'lim dasturining maqsadlari hamda amaldagi normativ talablarga muvofiq shakllantirilgan.

2-bob. Ta'lim dasturlari yo'nalishi

2-bob bo'yicha o'tkazilgan ichki va tashqi baholash natijalari hamda taqdim etilgan hujjatlar tahlili asosida mazkur bobdagi barcha indikatorlar muvofiq deb topildi. Tahlillar natijasida o'quv rejasida fanlararo mantiqiy izchillik ta'minlangani, nazariy va amaliy ta'lim uchun 105 haftalik o'quv yuklamasi belgilanganligi hamda ta'lim

jarayoni kutilayotgan o'quv natijalariga erishishga yo'naltirilgani aniqlandi. Fan dasturlari va sillabuslarning mazmuni zamonaviy Axborot tizimlari va texnologiyalari sohasi talablari hamda amaldagi normativ-huquqiy hujjatlarga muvofiq shakllantirilgan. Ta'lim dasturining davomiyligi, fanlarning uzviyligi va uzluksizligi ta'minlangan bo'lib, dastur milliy ta'lim tizimining ustuvor yo'nalishlari hamda xalqaro tajribalar asosida ishlab chiqilgan. Axborot tizimlari va texnologiyalari yo'nalishi uchun nazariy bilimlarni zamonaviy dasturiy vositalar, axborot tizimlari va raqamli texnologiyalar bo'yicha amaliy ko'nikmalar bilan uyg'unlashtirish muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birga, ixtisoslik fanlari bo'yicha sohaning eng so'nggi rivojlanish tendensiyalarini aks ettiruvchi zamonaviy xorijiy adabiyotlar fondini kengaytirish hamda nazariy bilimlarni amaliy mashg'ulotlar bilan yanada uyg'unlashtiruvchi o'quv materiallarini boyitish ta'lim dasturining sifatini yanada oshirishga xizmat qiladi. Ta'lim dasturi mazmuni amaldagi normativ talablar hamda zamonaviy mehnat bozori ehtiyojlariga muvofiq shakllantirilgan.

3-bob. O'quv jarayonini tashkil etish va o'quv natijalarini baholash yo'nalishi

3-bob bo'yicha o'tkazilgan ichki va tashqi baholash natijalari hamda taqdim etilgan hujjatlar tahlili asosida mazkur bobdagi barcha indikatorlar muvofiq deb topildi. Tahlillar natijasida "Axborot tizimlari va texnologiyalari" ta'lim dasturi bo'yicha o'quv jarayonini tashkil etish va baholash tizimi amaldagi akkreditatsiya mezonlari hamda normativ talablar asosida yo'lga qo'yilgani aniqlandi. Ta'lim tashkilotida sillabuslar, dars jadvallari, akademik qoidalar va boshqa o'quv-me'yoriy hujjatlar milliy hamda xalqaro talablarga muvofiq ishlab chiqilgan va amaliyotga joriy etilgan. Talabalar bilimni baholashning shaffofligi va xolisligini ta'minlash uchun zarur huquqiy hamda tashkiliy mexanizmlar shakllantirilgan, baholash natijalari yuzasidan talabalar fikr-mulohazalarini qabul qilish va ko'rib chiqish tizimi yo'lga qo'yilgan. Shuningdek, akademik halollik tamoyillari va ularga rioya etilishini ta'minlovchi tartib-taomillar amaliyotga tatbiq etilgan. Axborot tizimlari va texnologiyalari yo'nalishi uchun amaliy va laboratoriya mashg'ulotlari orqali kasbiy kompetensiyalarni shakllantirish hamda o'quv natijalarini baholash alohida ahamiyat kasb etadi, chunki mazkur sohada nazariy bilimlar zamonaviy texnologiyalar bilan ishlash ko'nikmalari orqali mustahkamlanadi. O'quv jarayoni va baholash tizimi ta'lim dasturining maqsadlari hamda amaldagi normativ talablarga to'liq muvofiq tashkil etilgan.

4-bob. Talabalar faoliyati yo'nalishi

4-bob bo'yicha o'tkazilgan ichki va tashqi baholash natijalari hamda taqdim etilgan hujjatlar tahlili asosida mazkur bobdagi barcha indikatorlar muvofiq deb topildi. Tahlillar natijasida ta'lim dasturi bo'yicha qabul talablari aniq belgilanganligi, qabul jarayonlari shaffof va amaldagi normativ-huquqiy hujjatlar asosida tashkil etilgani aniqlandi. Qabul parametrlarining institut resurslari va imkoniyatlariga mosligi ta'minlangan bo'lib, talabalarining o'qishini ko'chirish, kursdan kursga o'tkazish, akademik ta'til berish, o'qishdan chetlashtirish va qayta tiklash jarayonlarini tartibga soluvchi me'yoriy hujjatlar ishlab chiqilgan va amaliyotga joriy etilgan. Talabalarni akademik va ijtimoiy jihatdan qo'llab-quvvatlash, ularga maslahat berish hamda kasbiy rivojlanishiga ko'maklashish mexanizmlari shakllantirilgan. Talabalar faoliyatini boshqarish tizimi qabuldan boshlab bitiruvgacha bo'lgan barcha bosqichlarni qamrab oladi va ularning huquq hamda manfaatlarini ta'minlashga xizmat qiladi. Axborot tizimlari va texnologiyalari yo'nalishi kabi yangi tashkil etilayotgan ta'lim dasturi uchun bunday yaxlit boshqaruv va qo'llab-quvvatlash tizimining mavjudligi ta'lim jarayonini barqaror tashkil etish hamda talabalarining kasbiy rivojlanishini samarali ta'minlash imkonini beradi. Talabalar faoliyatini tashkil etish tizimi ta'lim dasturining maqsadlari hamda amaldagi normativ talablarga to'liq muvofiq shakllantirilgan.

5-bob. Inson resurslari yo'nalishi

5-bob bo'yicha o'tkazilgan ichki va tashqi baholash natijalari hamda taqdim etilgan hujjatlar tahlili asosida mazkur bobdagi barcha indikatorlar muvofiq deb topildi. Tahlillar natijasida "Informatika" kafedrasida ilmiy salohiyat 46,6 foizni tashkil etishi, jumladan 2 nafar fan nomzodi va 5 nafar falsafa doktori (PhD) faoliyat yuritishi, kadrlar bilan ta'minlanganlik darajasi esa 72,2 foizni tashkil etishi aniqlandi. Professor-o'qituvchilarning malakasini oshirish tizimi yo'lga qo'yilgan bo'lib, kafedraning ilmiy salohiyati va kadrlar tarkibi amaldagi me'yoriy talablarga muvofiq shakllantirilgan. Professor-o'qituvchilarning aksariyati pedagogik va raqamli texnologiyalar yo'nalishida ilmiy hamda uslubiy tajribaga ega bo'lib, bu zamonaviy bilimlarni sifatli o'qitish va ta'lim jarayoniga innovatsion yondashuvlarni joriy etishga xizmat qiladi. Shuningdek, ixtisoslik fanlarini o'qitishda xorijiy professor-o'qituvchilarning jalb etilgani ta'lim jarayonining xalqaro tajribalar bilan boyitilishiga hamda talabalarining kasbiy tayyorgarligini oshirishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Shu bilan birga, Axborot tizimlari va texnologiyalari yo'nalishining amaliy yo'nalganligini

yanada kuchaytirish maqsadida ta'lim jarayoniga sohaga ixtisoslashgan amaliyotchi muhandis-dasturchilarni kengroq jalb etish, shuningdek, kafedra salohiyatini axborot tizimlarini loyihalash, ma'lumotlar bazalarini boshqarish va zamonaviy dasturlash texnologiyalari bo'yicha yanada rivojlantirish ta'lim dasturining sifatini oshirishga xizmat qiladi. Inson resurslarini boshqarish tizimi ta'lim dasturining maqsadlari hamda amaldagi normativ talablarga muvofiq shakllantirilgan.

6-bob. Moddiy-texnik ta'minot yo'nalishi

6-bob bo'yicha o'tkazilgan ichki va tashqi baholash natijalari hamda taqdim etilgan hujjatlar tahlili asosida moddiy-texnik ta'minot yo'nalishidagi mezonlarning asosiy qismi muvofiq deb topildi. Tahlillar natijasida institutda ta'lim dasturini amalga oshirish uchun zarur infratuzilma, zamonaviy kompyuter sinflari, laboratoriya xonalari, raqamli ta'lim muhiti hamda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari vositalari shakllantirilgani aniqlandi. Talabalar kontingenti (yiliga 25 nafar)ni hisobga olgan holda mavjud moddiy-texnik baza dastlabki kurslarda dasturlash asoslari, algoritmlar va axborot texnologiyalariga oid fundamental fanlarni sifatli o'qitish uchun yetarli sharoit yaratadi. Shu bilan birga, inklyuziv ta'limni tashkil etish uchun bino va inshootlarni, o'quv jihozlarini hamda maxsus o'quv materiallarini to'liq moslashtirish, shuningdek, barcha ta'lim oluvchilar uchun axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish imkoniyatlarini yanada kengaytirish zarurligi aniqlandi. Axborot tizimlari va texnologiyalari yo'nalishining yuqori bosqichlarida o'qitiladigan sun'iy intellekt, neyron tarmoqlari va katta hajmdagi ma'lumotlarni qayta ishlash fanlari uchun yuqori unumdorlikdagi grafik protsessorlarga (GPU) ega hisoblash vositalari yoki bulutli hisoblash infratuzilmasidan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Shu sababli zamonaviy GPU qurilmalarini bosqichma-bosqich xarid qilish yoki bulutli hisoblash platformalarini ta'lim jarayoniga integratsiya etish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Shuningdek, dastlabki bosqichlarda Google Colab, Kaggle va boshqa ochiq GPU platformalaridan laboratoriya mashg'ulotlarida samarali foydalanish metodikasini joriy etish talabalarning amaliy kompetensiyalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Umuman olganda, moddiy-texnik ta'minot tizimi ta'lim dasturini amalga oshirish uchun yetarli darajada shakllantirilgan bo'lib, amaliy-laboratoriya bazasi va inklyuziv ta'lim infratuzilmasini yanada rivojlantirish ta'lim sifatini oshirishga xizmat qiladi.

6. BAHOLASH YO'NALISHLARI (BOB) BO'YICHA ANIQLANGAN KAMCHILIKLAR VA NOMUVOFIQLIKLAR

Jiddiy kamchiliklar (akkreditatsiyaga to'sqinlik qiluvchi):

Ta'lim dasturini yo'lga qo'yish uchun to'sqinlik qiladigan jiddiy kamchiliklar aniqlanmadi

Bartaraf etilishi lozim bo'lgan juz'iy kamchiliklar:

- ✓ Inklyuziv ta'lim olish uchun binolar va jihozlarning moslashtirilgani, maxsus o'quv materiallarining mavjudligi hamda AKT vositalaridan foydalanish imkoniyati (6.4-mezon) qisman muvofiq deb baholandi — mazkur sharoitlarni belgilangan talablarga to'liq yetkazish zarur.
- ✓ Ixtisoslik fanlari bo'yicha sohaning so'nggi tendensiyalarini qamrab oluvchi zamonaviy xorijiy adabiyotlar bazasi nisbatan kam miqdorda; ixtisoslashgan kompyuter sinflari, zamonaviy server qurilmalari, tarmoq texnologiyalari va litsenziyalı dasturiy ta'minot bilan jihozlanganlik darajasini oshirish talab etiladi.
- ✓ Yuqori kurslarda murakkab neyron tarmoqlari va katta ma'lumotlar bilan ishlash uchun yuqori unumdorlikdagi grafik protsessorli (GPU) qurilmalar yoki bulutli hisoblash texnologiyalari zarur.

7. TA'LIM DASTURINI SIFATLI TASHKIL ETISH BO'YICHA TAVSIYALAR

- ✓ Inklyuziv ta'lim uchun binolar va jihozlarni moslashtirish, maxsus o'quv materiallari va AKT vositalaridan foydalanish imkoniyatini ta'minlash.
- ✓ Yuqori unumdorlikdagi GPU qurilmalarini xarid qilish yoki bulutli hisoblash texnologiyalarini integratsiya qilish; dastlabki yillarda ochiq manbali bepul bulutli platformalardan (Google Colab, Kaggle) foydalanish metodikasini joriy etish.
- ✓ IT Park va texnoparklar bilan hamkorlikda laboratoriya bazasini mustahkamlash hamda zarur dasturiy vositalarni litsenziyalash.
- ✓ Amaliy ko'nikmaga ega muhandis-dasturchilarni dars jarayoniga jalb etish, professor-o'qituvchilarni maqsadli stajirovka va malaka oshirish dasturlari orqali rivojlantirish.

8. TA'LIM DASTURI BO'YICHA YAKUNIY XULOSA

Baholash natijalariga ko'ra, Samarqand davlat pedagogika institutining "Informatika" kafedrası negizida tashkil etilishi rejalashtirilgan 60610100 – Axborot tizimlari va texnologiyalari bakalavriat ta'lim dasturi bo'yicha taqdim etilgan hujjatlar, o'quv-uslubiy ta'minot, tashkiliy-boshqaruv tizimi, ta'lim dasturi mazmuni, o'quv jarayoni, talabalar faoliyatini tashkil etish, inson resurslari hamda moddiy-texnik ta'minot kompleks tahlil qilindi. Tahlillar natijasida ta'lim dasturini joriy etish

uchun zarur strategik va tashkiliy asoslar, ichki sifatni ta'minlash mexanizmlari, ish beruvchilar bilan hamkorlik tizimi, fanlararo izchillik ta'minlangan o'quv rejasi, malakali professor-o'qituvchilar tarkibi hamda zamonaviy kompyuter infratuzilmasi shakllantirilgani aniqlandi.


Ta'lim dasturi mehnat bozori ehtiyojlari va zamonaviy axborot texnologiyalari rivojlanish tendensiyalarini inobatga olgan holda ishlab chiqilgan bo'lib, nazariy va amaliy ta'limning uzviyligini ta'minlaydi. "Informatika" kafedrasining mavjud ilmiy salohiyati hamda professor-o'qituvchilarning kasbiy kompetensiyalari ta'lim dasturini sifatli amalga oshirish uchun yetarli hisoblanadi. Talabalar kontingentiga mos zamonaviy kompyuter sinflari, laboratoriyalar va raqamli ta'lim muhiti dastlabki bosqichlarda ta'lim jarayonini samarali tashkil etish imkonini beradi.

Baholash yakunlariga ko'ra, tashkiliy-boshqaruv, ta'lim dasturi mazmuni, o'quv jarayoni, talabalar faoliyati va inson resurslari yo'nalishlarining barchasi belgilangan akkreditatsiya mezonlariga muvofiq deb topildi. Moddiy-texnik ta'minot yo'nalishida inklyuziv ta'lim sharoitlarini yanada takomillashtirish zarurligi qayd etildi. Shuningdek, ixtisoslashgan kompyuter sinflari, server infratuzilmasi va litsenziyalangan dasturiy ta'minot bazasini rivojlantirish, yuqori bosqichlarda sun'iy intellekt va katta hajmdagi ma'lumotlarni qayta ishlash fanlarini samarali o'qitish uchun GPU texnologiyalari yoki bulutli hisoblash platformalaridan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Aniqlangan jihatlar ta'lim dasturini amalga oshirishga to'sqinlik qilmaydi va uni yanada takomillashtirishga qaratilgan tavsiyaviy xususiyatga ega.

Umuman olganda, 60610100 – Axborot tizimlari va texnologiyalari bakalavriat ta'lim dasturi belgilangan akkreditatsiya mezonlari va talablariga muvofiq hisoblanadi. Shu asosda ta'lim dasturi MUVOFIQ deb topildi.

9. TA'LIM DASTURI BO'YICHA AKKREDITATSIYA KOMISSIYASI QARORI

Akkreditatsiya komissiyasi qarori sanasi:	16.06.2026
Akkreditatsiya komissiyasi bayon soni:	3-son
Yakuniy qaror:	AKKREDITATSIYADAN O'TDI



+998 55 505 30 30



info@nqaae.uz
www.nqaae.uz



@nqaaeuz



@nqaaeuzbot

